

**M. Xoliqova, Sh. Ergasheva**

# **ODOBNOMA**

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
3-sinfi uchun darslik**

Tuzatilgan va to'ldirilgan uchinchi nashri

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan

TOSHKENT  
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS»  
2016

UO'K: 177=512.133(075)  
KBK 74.200.51  
X-72

**Xoliqova, Mohira.**

Odobnoma : umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik / M. Xoliqova, Sh. Ergasheva. - Tuzatilgan va to'ldirilgan uchinchi nashri – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2016. – 96 b.

ISBN 978-9943-979-74-1

UO'K: 177=512.133(075)  
KBK 74.200.51ya71

#### Taqrizchilar:

- Z. Zamonov** – Respublika ta'lim markazi Ijtimoiy, iqtisodiy bilim asoslari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi bosh metodisti;  
**N. Ro'ziboyeva** – Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 62-maktab o'qituvchisi;  
**Sh. Egamberdiyeva** – Koson tumanidagi 95-maktab direktori.

#### Shartli belgilar:



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari



— Hikmatlar va hadislar



«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridan olingan fikrlar



— Savol va topshiriqlar



Matndagi murakkab so'zlarning izohli lug'ati



— Aqlni charxlovchi quvnoq topshiriqlar



— Eslab qol



— Uyga vazifa

Aziz o'quvchi! Qo'lingizdagi kitob sizning «Odobnoma» fanidan 1- va 2-sinflarda olgan bilimlaringizni yanada kengaytirishga, mustahkamlashga xizmat qiladi. 3-sinfda siz odobli inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi, jamiyatda o'zini qanday tutishi, oilasiga, Vatanga qanday foyda keltirishi haqida juda ko'p narsalarni bilib olasiz.

Bilim egallash uchun ko'p o'qish, o'rganish kerak. Sizda buning uchun vaqt va imkoniyatlar yetarli. O'ylaymizki, siz vaqtni zoye o'tkazmaysiz, imkoniyatlardan unumli foydalanasiz.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-979-74-1

© «Yangiyo'l poligraf servis», 2012, 2016.  
© M. Xoliqova, Sh. Ergasheva, 2012, 2016.

# I BO‘LIM. VATAN MUQADDAS



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI – MUSTAQIL DAVLAT



Mustaqillik – eng ulug‘ ne‘mat. Mustaqil davlat xalqi erkin va ozod bo‘ladi. Shuning uchun otabobolarimiz asrlar davomida mustaqillik uchun kurash olib borganlar.

1991-yil 1-sentabr – O‘zbekiston mustaqillikka erishgan tarixiy sana. Shu kundan boshlab mamlakatimiz taraqqiyot yo‘liga chiqdi. Bugungi kunda erishgan yutuqlarimiz mustaqillik tufaylidir.

Mustaqillik yillarida yosh avlodning komil insonlar bo‘lib yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Yorug‘ va shinam o‘quv xonalari, sport inshootlari, ijod markazlari barpo etildi. Yoshlar bu imkoniyatlardan foydalanib, o‘z iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishlari mumkin.

Bugungi kunda o‘zbekistonlik yoshlar har sohada ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritib, dunyoga tanilmoqdalar.

Har bir inson o‘z Vataniga xizmat qilishi, uning gullab-yashnashiga hissa qo‘shishi lozim.

O‘zbekiston bayrog‘i, gerbi, madhiyasi va Konstitutsiyasi mustaqilligimizning asosiy belgilaridir.

# O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi

**Mutal Burxonov musiqasi**  
**Abdulla Oripov she'ri**

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

1992-yil 10-dekabr



Davlatimiz bayrog'i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan. 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan respublikamiz gerbida afsonaviy humo qushi tasvirlangan. Shuningdek, unda paxta, bug'doy, quyosh, tog'lar, vodiya va daryolar tasviri ham bor. Bayroq hamda gerbdagi har bir rang va tasvirlar o'z ramziga, ma'nosiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Unda bizning huquq va burchlarimiz belgilab qo'yilgan.

Mustaqillik tufayli dunyoga, jahonga chiqdik...  
Dunyo xaritasida endi katta harflar bilan  
«**O'ZBEKISTON**» deb yozib qo'yiladigan bo'ldi.

**Islom Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobidan**



**Mos javoblarni qo'yib, topshiriqni daftaringizda bajaring**

\_\_\_\_\_ O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi.

Davlat bayrog'i \_\_\_\_\_da qabul qilingan.

1992-yil 8-dekabr \_\_\_\_\_ qabul qilingan kun.


\_\_\_\_\_ O'zbekiston Prezidentidir.

O'zbekiston madhiyasi matni muallifi \_\_\_\_\_.



## Boshqotirmani yeching

1. Millat.
2. Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan ... .
3. Odobli ... – elga manzur.
4. ..., yosh avlodlar senga zo'r qanot.
5. Bilim manbayi.
6. Mustaqillik.
7. Yurtimizdagi qadimiy shahar.
8. Mamlakatimiz poytaxti.
9. Insonning ko'rki.
10. Buyuk bobokalonimiz.





1. «Mustaqillik» deganda nimani tushunasiz?
2. Ota-onangiz bilan mustaqillik mavzusida suhbatlashing. «Mustaqillik bizga nimalar berdi?» degan savolga javob toping.
3. Davlat ramzlari haqida soʻzlab bering.
4. Davlatimiz ramzlarini chizishga harakat qiling. Davlat ramzlaridagi tasvirlar nima-ni anglatadi?



## KONSTITUTSIYAMIZDA BOLALAR HUQUQI



Ushbu rasmlardagi bolalar o'zlarining qanday huquqlaridan foydalanyaptilar?

O'zbekistonda har bir inson davlat himoyasida. Davlat o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. Bu Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiya davlatimizning asosiy qonuni bo'lib, unga hamma amal qilishi shart.

O'zbekistonda bolalar bepul ta'lim olish huquqiga egadirlar. Zamonaviy va shinam maktablarda o'qiyotganimiz buning isbotidir.

Biz malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga haqlimiz. Shuningdek, dam olish huquqiga ham egamiz.



Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

**41-modda**

## **RUSTAMNING QUVONCHI**

Rustam bu yil 1-sinfga bordi. Maktabga borishdan avval onasi uni tibbiy ko'rikdan o'tkazdi.

2-sentabr Rustam uchun eng quvonchli kun bo'ldi. 1-sinf o'quvchilarining barchasiga Prezident sovg'asi topshirildi.

Maktabdan qaytgan Rustamni yaqinlari xursandchilik bilan kutib olishdi. Rustam ularga sovg'alarini ko'rsatib, maktabi, ustozlari va o'rtoqlari haqida so'zlab berdi. Ota-onasi unga yaxshi o'qib, odobli bola bo'lishi kerakligini uqtirishdi.



1. Siz ilk bor maktabga kelgan kuningizni eslaysizmi?
2. Rustam qanday huquqlaridan foydalandi?
3. Siz ham tibbiy ko'rikdan o'tganmisiz?  
Tibbiy ko'rik nima uchun kerak?

Har birimiz burch va majburiyatlarimiz borligini ham unutmasligimiz kerak. Jamoat joylarida, maktabda belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishimiz shart.

Shu bilan birga, boshqalarni hurmat qilishimiz zarur. Atrof-muhitni ozoda saqlash, tabiatni asrash har birimizning burchimizdir.



Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlilar.

**50-modda**



1. Siz Konstitutsiyamizda belgilangan qanday huquqlaringizdan foydalanyapsiz?
2. Burch va majburiyatlaringiz haqida ham bilib oldingizmi? Ular haqida gapirib bering.
3. O'zingiz yashayotgan joyning tabiati haqida so'zlab bering. Biz nima uchun tabiatni asrashimiz kerak?

# MEN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROSIMAN



Har qaysi davlat o'z fuqarolarining haq-huquqlarini himoya qiladi.

Biz O'zbekiston Respublikasi fuqarolarimiz. Shu bois davlatimiz bizning o'qishimiz, sog'lom o'sishimiz uchun g'amxo'rlik qiladi. Chunki biz yurtimizning kelajagimiz. Chinakam inson bo'lib, Vatanimga naf keltirayin, degan har bir o'g'il-qiz yaxshi o'qishi, odob-axloqli bo'lishi shart.



O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

**22-modda**



1. Siz nima uchun O'zbekiston fuqarosi sanalasiz?
2. Davlat o'z fuqarolarini himoya qiladimi? Bu qaysi qonunda belgilangan?

## **O'ZBEKISTON PASPORTI**

Dononing akasi Azamat 16 yoshga to'ldi. Pasport olgan kuni u uyga hayajon bilan kirib keldi.

– Oyijon, men ulg'aydim. Endi mening pasportim bor, – dedi.

Dono akasining nega bunchalik xursand bo'layotganiga tushunmadi. Buni sezgan onasi:

– Hali sen ham katta bo'lib pasport olasan. Uni chet mamlakatlarga chiqqaningda iftixor bilan ko'rsatasan. O'zbekiston pasporti bilan hamma

joyda boshingni baland ko'tarib yurishing mumkin.

O'sha kuni Donolarning uyida bayram bo'lib ketdi. Bobosi, buvisi va dadasi Azamatni tabriklashdi.

– El-yurtga foydasi tegadigan odam bo'lgin, bolajonim, – deb duo qilishdi.

Dononing akasiga juda havasi keldi. Qani endi u ham tezroq ulg'ayib pasport olsa! Dono pasport oladigan kunni sabrsizlik bilan kutyapti.



**Pasport** – fuqaro shaxsini tasdiqlovchi asosiy hujjat.



1. O'zbekiston pasporti necha yoshda beriladi?
2. Dono nima uchun akasiga havas qildi?
3. Inson vatani uchun nimalar qilishi kerak, deb o'ylaysiz?

# VATANING – ONANG





Yashna, Vatan  
Jon Vatan.  
Senga sharaf-shon Vatan!  
Sensan  
Bizning onamiz,  
Hadya senga jon va tan!

**Zafar Diyor**

Vatan – biz tug‘ilib o‘sgan joy. Vatan – oilamiz, maktabimiz, mahallamiz, O‘zbekistonimiz.

Har bir inson o‘z vatanini sevishi, ardoqlashi shart. Yovvoyi hayvonlar ham tug‘ilib o‘sgan joylarini tashlab ketishni istamaydilar. O‘t-o‘lan, dov-daraxtlarning begona tuproqda unib-o‘ssishi qiyin. Chunki hayvonlar ham, o‘simliklar ham o‘zi dunyoga kelgan tuproqda yashashga moslashgan.

Dunyoda muqaddas narsalar ko‘p emas. Eng aziz va qadrlı narsalargina muqaddas sanaladi. Ona va Vatan biz uchun hamisha muqaddas. Ota-bobolarimiz: «Ona yurtıng – oltin beshıgıng», «Ona yurtıng omon bo‘lsa, rang-u ro‘yıng somon bo‘lmas», – deb bekorga aytishmagan.



1. Vatanni siz qanday tushunasiz?
2. Siz uchun dunyodagi eng aziz va muqaddas narsalarni sanab bering.
3. Sinfdoşlaringiz bilan qishlog‘ingiz (shahringiz) tarixi, urf-odatları haqida suhbatlashing. Sizga tug‘ilib o‘sgan joyingiz nima uchun qadrlı?

## VATAN SOG'INCHI



Bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning nomi shoh va shoir sifatida mashhur. Andijonda tug'ilib o'sgan Bobur yoshligidan qunt bilan ilm o'rgandi, kitoblar o'qidi, she'rlar mashq qildi. Taqdir taqozosi bilan u Hindistonga ketdi va o'sha yerda qudratli davlat tuzdi.

Bobur mirzo shoh bo'lsa ham bu dunyoda armon bilan yashab o'tdi. Chunki u bir umr ona yurtidan uzoqda yashadi.

Vatanidan juda olisda bo'lgan Bobur ona-yurtidan tok qalamchasini va qovun urug'ini oldirib borib hind tuprog'ida ektirdi. Lekin qovun va uzum Vatani tuprog'ida yetishtirilganidek mazali bo'lmadi.

Kunlarning birida Bobur mirzoga ona-yurti Andijondan qovun olib keldilar. U qovunni hidlab, to'yib-to'yib yig'ladi.



1. Nima uchun Bobur mirzo podshoh bo'lsa ham, bir umr armon bilan yashadi?
2. Bobur mirzo nega qovunni hidlab, to'yib-to'yib yig'ladi?

## VATANNI SEVISH NIMA?



1. Mehmonga borish yoki boshqa sabab bilan bir necha kun uyingizdan uzoqda bo'lganmisiz? Shunday paytlarda nimalarni his qilgansiz?
2. Siz hayotingizni kimlarsiz tasavvur eta olmaysiz?

Vatanni onaga o'xshatadilar. Onaning farzandga mehri beqiyos. Ona bizni dunyoga keltiradi, oq sut beradi, avaylab-ardoqlaydi.

Vatan ham insonlarni onadek sevadi, bag'rida o'stirib-ulg'aytiradi. Vatanni sevish – tug'ilib o'sgan tuproqqa, ajdodlarimiz xotirasiga hurmat-ehtirom. Shu bilan birga, ona tilimizni, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamdir. Vatanga xiyonat qilish eng og'ir gunoh hisoblanadi.

Qadimda uzoq yurtlarga sayohatga otlangan insonlar kindik qoni to'kilgan tuproqdan bir kaft olib ketishgan. Ular ona tuproq hamroh bo'lishiga, xavf-xatardan asrashiga ishonganlar. Vatanni, yaqinlarini sog'ingan paytlarda uni hidlab, ona yurtga albatta qaytib kelishlariga umid bog'lashgan.

Vatanni sevish uni maqtash yoki quruq gapda ifodalash emas. Inson vataniga foyda keltirish, uni himoya qilish orqali muhabbatini ko'rsatishi kerak. Bizning vatanparvarligimiz yaxshi o'qishimiz, odob-axloqli bo'lishimizdir. Har birimiz chuqur

bilim egallab, kelajakda O'zbekistonning gullab-yashnashiga hissa qo'shishimiz lozim.



Albatta, jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p. Lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan.

## KABUTAR HIKOYATI

Alisher Navoiyning «Xamsa» asarida kabutar haqidagi ibratli hikoyat bor. Unda aytilishicha, qadim zamonda xat tashuvchi bir kabutar bo'lgan ekan. Kunlarning birida zolim shoh uni tutib, qafasga solib qo'yibdi. Bir necha yillar o'tib kabutar qafasdan ozod bo'libdi va to'g'ri o'z uyi tomon parvoz qilibdi. Kabutar uyini uzoq qidiribdi. Chunki yillar davomida uning uyi vayron bo'lib ketgan ekan. Chiroyli kabutarni ko'rgan kishilar don sepib chorlab, uni yana tuzoqqa tushirmoqchi bo'libdilar. Lekin kabutar ularga e'tibor qilmay uyini qidirishda davom etibdi. Nihoyat, u o'z uyini topib, quvonch bilan unga qo'nibdi. Kabutar uchun oltin qafasdan, shohning chiroyli qasridan o'zining mana shu vayrona uyi afzal ekan-da!

Dunyoda sevishga, ardoqlashga arziydigan narsalar ko'p. Lekin eng buyuk muhabbat – bu Vatanga bo'lgan muhabbatdir. Prezidentimiz aytganlaridek, o'z vatanini sevgan inson buyuk ishlarga qodir bo'ladi.



1. Kabutar nima uchun yillar o'tsa ham, o'z uyini unutmadi?
2. Sizingcha, dunyoda nimalar sevishga, ardoqlashga arziydi?

## QIYOSI YO'Q

### Tursunboy Adashboyev

Sen tug'ilgan,  
Qutlug' xona.

Aziz diyor,  
Pok ostona.

So'lim o'lka,  
Kesh, Farg'ona.

Qadim Urganch  
Shu durdona

Ko'rkam Toshkent,  
Asal-qandim.

Chust, Buxoro,  
Samarqandim.

Qiyosi yo'q,  
Bu yagona.

Sen-u menga,  
Vatan – Ona.

Shunday go'zal  
Ulug' yurtkim,

Tuprog'ini  
Ko'zga surtgin.



1. «Qiyosi yo'q» she'rini yod oling.
2. She'rda sanab o'tilgan shaharlar haqida nimalarni bilasiz?

## VATANIMIZDAGI TARIXIY OBIDALAR

Yurtimizda qadimiy obidalar juda ko'p. Ular bizning boy tariximizdan, ota-bobolarimizning yuksak aql-u zakovatidan darak beradi.



Samarqand shahridagi Registon maydoni hamisha sayohatchilar bilan gavjum. Bu maydonda uchta muhtasham obida: Sherdor, Tillakori va Ulug'bek madrasalari joylashgan.



Ichan qal'a Xivadagi qalin devorlar bilan o'ralgan noyob obidadir. Bir paytlar bu devorlar shahar xalqini tashqi dushmanlardan himoya qilgan. Ichan qal'a YUNESKOning Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. 1997-yilda Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan obida qayta ta'mirlandi.



Minorayi Kalon – katta minora degani. Ushbu yodgorlik 1127-yilda qurilgan. Buxoroga borgan kishi bu minorani koʻrmay ketmaydi.



Imom Buxoriy majmuasi Samarqand shahri yaqinidagi Xartang qishlogʻida joylashgan. Ajdodlarimiz buyuk muhaddis allomaning qabrini ziyoratgohga aylantirishgan. 1998-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasi barpo etildi.



Poytaxtimiz markazidagi Hazrati Imom majmuasi 2007-yilda qayta tiklandi va ta'mirlandi. Majmua maqbara, masjid va madrasalardan tashkil topgan. Uni ziyorat qilish uchun mamlakatimizning turli joylaridan va chet ellardan mehmonlar kelishadi.

Bobolarimizdan meros bo'lgan tarixiy obidalarni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning burchimizdir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda muhtasham imoratlar qurildi. Bu binolar ham kelajakda tarixiy obidalar sifatida qadrlanadi.



1. Yurtimizdagi qaysi tarixiy obidalar haqida ma'lumotga egasiz?
2. Siz ham tarixiy obidalarni ziyorat qilganmisiz?
3. Mustaqillik yillarida qurilgan muhtasham inshootlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Tarixiy obidalarni asrab-avaylash nima uchun zarur?





## Mavzu yuzasidan testlar

**1. Qaysi qatordagi javoblarda tarixiy obidalar to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) qishloq va shaharlar;
- B) maktab va litseylar;
- D) qadimiy bino va inshootlar;
- E) daryo va kanallar.

**2. Registon maydoni qaysi shaharda joylashgan?**

- A) Buxoroda;
- B) Samarqandda;
- D) Xivada;
- E) Toshkentda.

**3. Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida kimning maqbarasi joylashgan?**

- A) Bahouddin Naqshbandiy;
- B) Imom Termiziy;
- D) Alisher Navoiy;
- E) Imom Buxoriy.

**4. Minorayi Kalon qanday ma'noni bildiradi va u qaysi shaharda joylashgan?**

- A) Katta minora – Buxoroda;
- B) Baland minora – Xivada;
- D) Qadimiy minora – Samarqandda;
- E) Kichik minora – Shahrisabzda.

## TAKRORLASH

### YAGONADIR VATANING SENING

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi...

Yodingizda bo'lsin, Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'st-birodarga bo'lgan mehr bilan qo'shilib ketadi. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o'z yurtlarini sog'inadilar. Dov-daraxtlar o'z yurtlarini qo'msaydilar. Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko'radigan daraxt bo'lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o'z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o'sib, ko'kka bo'y cho'zibdi... Yillar o'tib bog' o'rmonga aylanibdi. Ammo oradan o'ttiz-qirq yil o'tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o'z-o'zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqalarini ushlabdi. Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit'asida qattiq qurg'oqchilik bo'lgan ekan. U yerdagi shu navli daraxtlar ham qurib qolgan ekan. Shunda olimlar bir-birlaridan ancha olisda bo'lgan daraxtlarni birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan, degan xulosaga kelishibdi. Ko'rdingizmi, aqlimiz anglashga ojiz bu sirli aloqa Vatan tuyg'usi

bilangina izohlanishi mumkin. Daraxt-ku, daraxt. Alloh Taolo til-u zabon, ong-u tafakkur bergan inson uchun Vatandan ortiq mehrigiyo bormi?! Yo‘q, albatta!

Vatan ona kabi yagonadir. Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram, yagonaligi bilan bebaho va beqiyosdir.


**Xurshid Davron**



1. Vatanga muhabbat eng avvalo nimadan boshlanadi?
2. Inson begona yurtda o‘zini to‘la-to‘kis baxtli his qilishi mumkinmi?
3. Sizningcha, Vatan nima uchun mo‘tabar va muqaddas?



### Boshqotirmani yeching



1. Gerb, bayroq, madhiya – ... .
2. ...-yurt.
3. O‘zbekiston – ... diyor.
4. Mustaqillik, erkinlik.
5. Mamlakatimizdagi daryo.
6. Osoyishtalik.
7. Qadimiy yodgorlik.
8. Eng aziz ne‘mat.

## II BO‘LIM. INSON GO‘ZALLIGI – ODOB-AXLOQI BILAN

### KEKSALARNI ARDOQLAYLIK



1. Sizning oilangizda ham keksa insonlar bormi? Ular bilan qanday munosabatda bo‘lasiz?
2. Bobongiz yoki buvingizning qaysi nasihatlarini doimo yodda tutasiz? Kattalarning so‘zlarini quloqqa olmaganingiz uchun pushaymon bo‘lganingizni eslaysizmi?

Keksa insonlar bor uy farishtali bo‘ladi. Bobo va buvilarimizning duosi, pand-nasihatlari bizga asqotadi. Ular hayot tajribalarini o‘rgatishadi, er-taklar aytib berishadi.

Yurtimizda keksa yoshdagi insonlar ardoqlanadi. Ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladi, holidan xabar olinadi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan 2002-yil «Qariyalarni qadrlash yili», 2015-yil «Keksalarni e‘zozlash yili» deb e‘lon qilindi.



Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish xalqimizga xos qadriyatlardan. Keksalarga salom berish, ularning so‘zlariga quloq solish, nasihatlariga amal qilish lozim.

## KEKSALARNING DUOSI

Nodir bo'sh vaqtini bobosi va buvisi bilan o'tkazishni yoqtiradi. Chunki ular bilan vaqtning qanday o'tganini sezmay qoladi. Ular bog'da daraxt va gullarni birga parvarish qilishadi. Bobosi o'simlik va qushlar, hayvonlar haqida qiziq-qiziq voqealarni so'zlab beradi. Buvisining maqollari, qo'shiq va ertaklarini maza qilib eshitadi.



Kunlarning birida Nodir do'sti Zokir bilan maktabdan qaytayotgan edi. Yo'lda katta sumkani zo'rg'a ko'tarib ketayotgan bir kampirni ko'rib qolishdi.

– Zokir, kel onaxonga yordam beraylik, – dedi Nodir.

– Yo'q, men tezroq uyga borib, dars qilmoqchiman, – dedi Zokir.

– Mayli, sen ketaver. Men yordam beraman, – dedi Nodir.

Bobosi va buvisi Nodir nega kech qolganini surishtirdi. Nabirasining javobini eshitgach:

– Barakalla, bolam. Keksalarning duosini olsang, aslo kam bo'lmaysan. Axir, «Oltin olma, duo ol» deyishadi-ku, – dedi bobosi uning yelkasiga qoqib.



1. Zokirning xatti-harakatini qanday baholaysiz?
2. Sizingcha, notanish keksalarga yordam berish shartmi? Javobingizni izohlab bering.



Quyidagi qoidalarni eslab qoling va ro'yxatni daftaringizda davom ettirishga harakat qiling:

- 1) o'zidan kattalarga birinchi bo'lib salom berish;
- 2) keksa insonlarning oldida baland ovozda gapirmaslik, behuda kulmaslik;
- 3) jamoat joylarida yoki transportda keksalarga joy berish;
- 4) keksa insonning qo'lida yuki yoki biron yumushi bo'lsa, yordamlashish;
- 5) nasihat qilsa, so'zlariga quloq solish...



Ota-onangiz bilan keksalarga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida suhbatlashing. **Ulardan «Qarisi bor uyning parisi bor», «Qari bilganni pari bilmas»** maqollarining mazmunini so'rab oling.

## **BOLA HUQUQLARI. «BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI TO'G'RISIDA»GI QONUN HAQIDA**

O'zbekistonda har bir bolaning sog'lom o'sishi va voyaga yetishiga davlat g'amxo'rlik qiladi. Davlatimizning bosh qonuni – Konstitutsiyada bizning huquq va erkinliklarimiz ta'minlangan. Shu bilan birga, 2008-yil 8-yanvarda «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun ham qabul qilindi. Bu qonun bolalarni har tomonlama himoya qiladi.

Qonunda bolalarning o'z ota-onasi bag'rida ulg'ayishi qayd etilgan. Ota-onasiz bolalarga esa davlat g'am-xo'rlik qiladi.

Har bir bola bepul bilim olish huquqiga ega. Har bir bola dam olish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish huquqiga ega. Yurtimizda bolalarning baxtiyor yashashi, o'sib-ulg'ayishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Prezidentimizning «Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir» nomli kitobida ham bolalarning sog'lom va yetuk bo'lib ulg'ayishlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan.



Qonunda bolalarning quyidagi huquqlari kafolatlangan:

- Har bir bola yashash huquqiga ega.
- Bolaning familiya, ism, ota ismini olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqi mavjud.
- Davlat bolaning sog'lom tug'ilishi va har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.
- Har bir bola o'z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega.
- Davlat bolalarning bepul tibbiy yordam olishini kafolatlaydi.


Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'i hamda ehtiyojlariga mos keladigan dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqqa ega.

**21-moddasidan**



Ota-onangiz yoki aka-opalaringiz yordamida «Baxtiyor bolaligim» mavzusida matn tuzing.

## MUQADDAS KITOBLARDA BOLALAR ODOBI



Hadislar islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi.



Hadislarda yaxshi xulq va go'zal fazilatlar targ'ib qilinadi. Yomonlik, chaqimchilik, baxillik, zulm va xiyonat kabi illatlar qoralanadi.



**Fazilat** – insondagi yaxshi odatlar. Fazilatlarimiz qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi;

**illat** – kishi fe'l-atvoridagi yomon xususiyatlar. Ularni yo'qotmay turib, yaxshi degan nom olib bo'lmaydi.

Muqaddas kitoblarda bolalar odobi va tarbiyasiga oid juda ko'p fikrlar aytilishi bilan birga ilm olish farz ekanligi qayd etiladi.



Yurtimizdan dunyoga mashhur muhadislar yetishib chiqqan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy singari bobokalonlarimiz hadislarni to'plaganlar.

## Hadislardan namunalar

Odamlar orasida chaqimchilik va bo'hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar.

\* \* \*

Rostgo'ylikda xavf-u xatar ko'rsanglar ham, faqat rost so'zlanglar. Shunda najot topasiz-

lar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham, yolg'ondan saqlaninglar. Chunki baribir yolg'onning oxiri – voy.

Kishidagi eng yomon illat o'ta baxillik va qo'rqqqlikdir.

\* \* \*

Ikki kishiga Tangri qiyomat kuni rahmat nazari bilan boqmaydi:

1. Qarindosh-urug'idan uzilib ketgan kishiga.
2. Yomon qo'shniga.



1. Yuqoridagi hadislardan qaysi biri sizda ko'proq taassurot qoldirdi? Nima uchun?

2. Odob-axloqqa oid hadislardan to'plang.



Topshiriqni bajaring. Hadislarda targ'ib qilingan quyidagi fazilatlarni va qoralangan illatlarni ikkita ustunga ajratib yozing:

Mehr-oqibat, yolg'onchilik, rostgo'ylik, adovat, adolat, baxillik, saxiylik, poklik, adolatsizlik, xiyonat, insof, zulm, maqtanchoqlik...



Yuqoridagi qatorlarni mazmunan davom ettirishga harakat qilib ko'ring.

## DONOLAR ODOB-AXLOQ, DO'STLIK HAQIDA



1. Sizning do'stlaringiz ko'pmi?
2. Eng yaqin do'stingiz kim? Undagi qaysi fazilatlar sizga yoqadi?
3. Sizni yaxshi do'st deb hisoblashlarini xohlaysizmi? Buning uchun nima qilishingiz kerak?

### ODOBNI ODOBSIZDAN O'RGANDIM

Luqmoni hakimdan so'radilar:


- Odobni kimdan o'rganding?
- Odobsizdan, – javob qildi u.
- Iye, qanaqasiga? – hayron bo'lishdi.
- Odobsizning qaysi ishi ko'zingga yomon ko'rinsa, o'sha ishlarni men qilmadim.

«Sharq rivoyatlari»dan



1. «Odobni odobsizdan o'rgan» degan naqlni qanday tushunasiz?
2. Sizda birovning nojo'ya xatti-harakati e'tiroz uyg'otganmi? Undan qanday xulosaga chiqqansiz?

Ota-bobolarimiz qadimdan insonlarni odob-axloqli bo'lishga chorlab kelishgan. Chunki inson odob-axloqi bilan go'zaldir.



Sohibqiron Amir Temur shunday deydi: «Ochiq-yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim».

Qadimda esa bir donishmand farzandiga shunday nasihat qilgan ekan:

– Ey farzand, hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun quyidagi nasihatlarimga amal qil:

- Halol bo'l, mehnatni sev. Halol mehnat qilgan odam ikki dunyoda kam bo'lmaydi.

- Yalqovlikdan uzoqlash, g'ayrat-shijoatni o'zingga shior qil. Doimo harakatda bo'l va oldinga intil.

- Ehtiyotkor bo'l. Barcha ishda tartib va intizomga rioya qil.

- Senga topshirilgan vazifalarni bekam-u ko'stado qil.

- Samimiy, pok qalbli, vijdonli va to'g'riso'z bo'l.

- Sabrli, hammaga mehribon va g'amxo'r bo'l.

- Kiyinishda, yurish-turishda sodda va tabiiy yo'lni tut. Manmanlikka berilma.

## **KIM BILAN DO'ST BO'LISH KERAK?**

Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'st bo'lish mumkin:

1. Ilmli kishilar bilan. Chunki ular o'z hayotlarini ilm-u odob bilan o'tkazadilar.

2. Olijanob kishilar bilan. Ular do'stlarining aybini yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar.

Yolgʻiz qolganda doʻstining aybini oʻziga aytib, tuzatishga yordam beradilar.

3. Begʻaraz va mard kishilar bilan. Ularning doʻstliklari haqiqiy boʻladi. Doʻstlikdan foyda koʻrishni oʻylamaydilar.

### «Sharq rivoyatlari»dan



1. Sizningcha, inson doʻstining aybini yashirishi kerakmi? Siz doʻstingizning aybini oʻziga aytib, uni tuzatishga yordam bera olasizmi?
2. «Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar» degan maqolni qanday tushunasiz?

**Chin doʻst uldirki, doʻstidan hech qachon ranjmaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.**

Amir Temur

**Yangi doʻst topsang, eski doʻstlaringni unutm va ulardan yuz oʻgirma. Shunday qilginki, doʻstlaring koʻp boʻlsin. Yaxshi doʻstlar kishining boyligidir.**

Kaykovus

**Nodon doʻstni doʻst soniga kiritma. Chunki u nodonligi tufayli senga zarar yetkazadi.**

Alisher Navoiy



Doʻstlik haqida sheʼr, maqol yoki ertaklardan namunalarni toʻplang va daftaringizga yozing.

## SAXIYLIK VA BAXILLIK. SOVG'A BERISH VA SOVG'A OLIISH ODOBI



Tangri saxiydir, saxiylarni do'st tutadi. Axloqi oliy kishilarni yoqtirib, axloqsizlarni yoqtirmaydi.

Saxiylik o'zidagi bor narsani boshqalar bilan baham ko'rishdir. Saxiy inson biror narsaga yoki ko'makka muhtoj bo'lgan kishiga albatta yordam beradi. Saxiy barchaga birdek yaxshilik qiladi, ammo buning evaziga hech narsa kutmaydi.

Baxillik esa birovga hech narsa bermaslik va boshqalarning yutug'ini ko'rolmaslikdir. Xalqimizda «Baxilning bog'i ko'karmas» degan maqol bor. Baxil odam har qancha chiranmasin, ishida unum, oilasida baraka bo'lmaydi. Baxillikni odat qilgan kishi boshqalarga qilgan yomonligi evaziga albatta jazo oladi.



1. Atrofingizdagi insonlardan kimni saxiy deb ayta olasiz? Undan ibrat olishga harakat qilasizmi?

### HILOLA NEGA UYALIB QOLDI?

Mehnat darsida o'qituvchi O'zbekiston bayrog'ini yasashlarini aytdi. Komron ertalab shoshganidan yelim va rangli qog'ozlarini unutib qoldirgan edi. Shuning uchun u:

– Hilola, rangli qog‘oz va yelimingdan foydalanib tursam maylimi? – deb so‘radi.

– O‘zimda ozgina qolgan edi, – deb javob berdi Hilola.

Buni ko‘rgan Nodira:

– Komron, mening narsalarimdan foydalanishing mumkin, – dedi.

Ertasi kuni rasm darsida Hilola moybo‘yoqlarini olib kelishni unutdi. U kechagi ishi uchun o‘rtoqlaridan moybo‘yoq so‘ray olmadi. Buni sezgan Komron:

– Hilola, kel birga rasm chizamiz. Senga qaysi rangdagi moybo‘yoq kerak? – dedi.

Hilola o‘zining qilmishidan uyaldi.



1. Hilola nega uyaliq qolgani haqida fikr yuriting.
2. Inson do‘stlarining oldida uyaliq qolmasligi uchun qanday yo‘l tutishi kerak?



Sovg‘a berish orqali yaqinlarimizga va do‘stlarimizga qanchalik e‘tiborli ekanimizni ko‘rsatamiz va ularning kayfiyatini ko‘taramiz.



1. Insonga qanday kunlarda sovg‘a beriladi? So‘nggi bor kimga nima uchun sovg‘a berdingiz?
2. Tug‘ilgan kuningizda yoki bayramlarda qanday sovg‘a olishni xohlaysiz?

Nozimaning tug‘ilgan kuniga mehmonlar kelishdi. Unga kitoblar, o‘yinchoqlar hadya qilishdi. Ammo Nozima uyali telefon sovg‘a qilishlarini xohlagan edi. Shuning uchun u qovog‘ini uyib oldi va: «Menga sovg‘alar yoqmasi», – dedi.



1. Sizningcha, Nozima to‘g‘ri ish qildimi?
2. Agar sizga berilgan sovg‘alar yoqmasa, buni atrofdagilarga bildirasizmi?



Quyidagi topshiriqni daftaringizga ko‘chiring va to‘ldiring:

### Kimga qanday sovg‘a tanlayman?

Bobomga \_\_\_\_\_

Ukam (akam)ga \_\_\_\_\_

Buvimga \_\_\_\_\_

Singlim (opam)ga \_\_\_\_\_

Dadamga \_\_\_\_\_

Do‘stimga \_\_\_\_\_

Onamga \_\_\_\_\_

Ustozimga \_\_\_\_\_



Sovg‘a berilganda, albatta rahmat aytish kerak. Sovg‘a yoqmasa, buni sovg‘a bergan kishiga yoki atrofdagilarga bildirish odobdan emas.

Sovg‘a tanlash oson emas. Sovg‘a kimga berilishini yodda tutish kerak. Shunday sovg‘a tanlash kerakki, u insonning yoshiga, didiga, qiziqishlariga mos bo‘lsin.

Sovg‘aning katta-kichigi bo‘lmaydi. Eng muhimi – e‘tibor. O‘z qo‘limiz bilan yasagan sovg‘amiz ham yaqinlarimizni xursand qilishi mumkin.



## TAKRORLASH

### JONLI HAYKAL

O'sha kuni biz – aka-singil Hasan-Zuhralarning tug'ilgan kunimiz bo'lib, o'rtoqlarimizni kutayotgan edik. Ular birin-ketin aytilgan vaqtda kelib, stullarga o'tirishdi.

– Tabriklayman seni, Hasan, tug'ilgan kuning bilan, – deb Abdurahmon menga bir quti bo'yoq qalam uzatdi, singlim Zuhraga esa qip-qizil lola berdi.

Muqaddas daftar bilan kitob sovg'a qildi. Baxtiyor shokolad olib chiqqan bo'lsa, Tohir chiroyli manzara tasvirlangan rasm olib kelibdi.

Hammadan keyin kelgan Murod esa tug'ilgan kunimizga bir tup o'rik ko'chati olib chiqsa bo'ladimi!

– Voy, – deb yubordi singlim Zuhra.

– Ko'chatni nima qilaman? – deb yuboribman men ham.

Murod bo'sh kelmay:

– Hovliga ekib qo'yamiz. Yaxshi o'rik ekan, dadam berdilar. O'zlari payvand qilganlar, – dedi.

Ko'chatni istar-istamas uning qo'lidan oldim, bir chekkaga qo'yimoqchi bo'lgan edim, Murod yana:

– Yo'q, hozir ekamiz, – deya uni qo'limdan oldida, onamdan qayerga ekish kerakligini aniqlab, yer kovlay boshladi. Xullas, ko'chatni o'zi ekib, o'zi suv quydi. Keyin yuz-qo'lini yuvib kelib, stulga o'tirdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgach, Muroddan boshqa o'rtoqlarim bergan sovg'alar tugab, ayrimlari sinib, esdan chiqib ketdi. Ammo Murodning sovg'asi – u o'tqazgan o'rik avj olib o'sdi. Chamamda, oq o'rik bu yil nishona hosil qiladi. O'rik pishsa, albatta, Murodni va o'rtoqlarimni yana chaqirib mehmon qilmoqchimiz. Biz Muroddan o'shanda bekorga ranjigan ekanmiz. U hovlimizga jonli haykal o'rnatgan ekan. Uning sovg'asi eng yaxshi, unutilmas bo'lib qoldi.


**Sobit G'afurov**



1. Hasan dastlab Murod keltirgan sovg'aga qanday munosabatda bo'ldi?
2. Kutilmagan sovg'a berish yoki olish insonga qanday ta'sir ko'rsatadi? Siz bunga tayyormisiz?



### Boshqotirmani yeching



1. Umrimizning beg'ubor fasli.
2. Insonlar o'rtasidagi qadrdonlik.
3. Donishmandlik pallasi.
4. Osoyishtalik.
5. Qo'li ochiqlik.
6. Qizg'anchiqlik, birovni ko'rolmaslik.

## MEHNAT INSON HAYOTINI BEZAYDI

**Maqollarni o'qing va mazmuniga  
diqqat qiling**

Daryo suvini bahor toshirar,  
Odam qadrini mehnat oshirar.

\* \* \*

Halol mehnat – yaxshi odat,  
Berur senga saodat.

\* \* \*

Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam,  
Odam – mehnati bilan.

\* \* \*

Bir kishi ariq qaziydi,  
Ming kishi suv ichadi.

\* \* \*


Gapni kam so'zla,  
Ishni ko'p ko'zla.

Mehnat inson hayotini bezaydi. Biz ishlatayotgan buyumlar, kiyimlar, iste'mol qilayotgan taomlar – barchasi kimningdir mehnati tufayli yuzaga keladi.

Insonning qo'li – gul. U istasa, toshda gul undirishi, oddiy loydan bejirim buyumlar yasashi mumkin.

Dangasalik – yomon illat. Dangasa inson hech qachon maqsadiga erisha olmaydi.

## TOSHNI KESGAN ARQON



Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino bolalik chog'ida matematika ni uncha yoqtirmas ekan. Chunki u bu fanni juda qiyin deb hisoblar ekan.

Bir kuni ibn Sino qir-adir-da ketayotib quduqqa duch kelibdi. Chanqog'ini qondirish maqsadida quduqqa chelak tashlabdi. Suvni tortib olar ekan, quduq og'zidagi marmar gardishga e'tibor beribdi. Gardish chelakka bog'langan arqonning sirg'alishidan yeyilib ketgan ekan. Ibn Sino xayolga tolibdi:

– Arqon yumshoq bo'lsa, qanday qilib mustahkam marmar toshni kesishi mumkin? Demak, har qancha qiyin bo'lmasin, biror ishni uddalash uchun g'ayrat-shijoat, sabr-matonat bilan tinimsiz mehnat qilish kerak ekan-da! Men matematika ni tushunmayman, agar harakat qilsam, albatta o'rganib olaman.

Shunday qilib, alloma matematika ni to'la-to'kis o'zlashtiribdi.

Ibn Sino har gal qiyin ishga duch kelgan paytda marmarni kesgan arqonni esga olar ekan.



1. Sizningcha, ibn Sino dunyoga mashhur olim bo'lishining siri nimada?
2. Qiyin ishni, bu mening qo'limdan kelmaydi, deb tashlab qo'yish to'g'rimi?



## MEHNAT QO'SHIG'I

Zafar Diyor

Mehnat – sharaf-shon ekan,  
Mehnat – hayot va rohat.  
Yashamoqni istagan  
Ko'rsatgusi mahorat.

Shon-shuhratga ko'milur,  
Har kim halol ishlasa.  
Og'ir yumush yengilur  
G'ayrat oti kishnasa.



«Mehnat qo'shig'i» she'rini yod oling.

## KASBLAR OLAMI



1. Ota-onangiz qaysi kasbda mehnat qiladi?
2. Katta bo'lganingizda kim bo'lmoqchisiz?

**Quyidagi fikrlarga mos javoblarni rasmlardan toping va daftaringizga yozing:**

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya beradi...
2. Insonlarni davolaydi...
3. Chiroyli imoratlar quradi...
4. Tansiq taomlar pishiradi...
5. Bejirim kiyimlar tikadi...
6. Odamlarning uzog'ini yaqin qiladi...
7. Vatani qo'riqlaydi...
8. Turli-tuman noz-ne'matlar yetishtiradi...



## AKA-UKA SINDOROVLAR – JAHON CHEMPIONLARI

Shaxmat aqlni charxlaydi. Tafakkurni o‘stirib, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Inson kamolotida bu sport turining o‘rni katta.

O‘zbekistonlik aka-uka shaxmatchilar Javohir va Islombek Sindorov xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lib, yurtimiz dovrug‘ini dunyoga tanitdilar. Ular dunyoning eng kuchli sportchi-yoshlarini mag‘lubiyatga uchratdilar. Javohir va Islombek o‘zbek yoshlari har sohada ilg‘or ekanini yana bir bor isbotladilar.

Yurtimizda yoshlarga o‘z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



Bugungi kunda o'zbek yoshlari sport, musiqa, san'at, ilm-fanning turli sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Iqtidor har bir insonda mavjud. Uni ro'yobga chiqarish uchun tinimsiz mehnat, qunt va sabr talab etiladi. Oldiga aniq maqsad qo'yib, astoydil intilgan kishi albatta unga erishadi.



1. Aka-uka Sindorovlarning g'alabalari sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Ular bunday ulkan muvaffaqiyatlarga erishishlarining sababi nima?
3. Tengdoshlaringiz orasida katta yutuqlarga erishganlar bormi? Ular haqida so'zlab bering.



Tasavvur qiling, Siz jurnalistisiz. Ota-onangiz bilan kasb tanlash mavzusida suhbatlashing. Ulardan quyidagi savollarga javob oling va daftaringizga yozing:

1. Nima sababdan aynan shu kasbni tanlagansiz?
2. Bu kasbni egallash uchun qancha vaqt va mehnat talab etiladi?
3. Kasbingizning yaxshi va yomon tomonlarini ayting.



## ORASTALIK – INSON KO‘RKI



Orastalik insonning ozodaligi, kiyinishi, odob-axloqi, yurish-turishi, buyumlarini tartibli saqlashida ko‘rinadi. Orasta insonga hammaning havasi keladi.

### ORASTALIK QANDAY SOZ

Akmal 3-sinfda o‘qiydi. «Odobnoma» darsida o‘qituvchi orasta bola qanday bo‘lishi kerakligi haqida gapirdi. Akmal ustozining gaplarini eshitib, o‘zidan uyalib ketdi. Chunki u o‘zini orasta va tartibli bola deb ayta olmasdi. Akmal shu kundan boshlab orasta bo‘laman, deb o‘ziga so‘z berdi.

Uyga borgach, tufisini artib joyiga qo‘ydi. Sumkasini har kungidek eshik oldiga emas, o‘z xonasiga olib borib qo‘ydi. Kiyimlarini javonga ildi. Stolining usti betartibligini ko‘rib, darhol tartibga keltirdi. Yuz-qo‘llarini yuvib, sochlarini taradi. Onasi ishdan kelguncha oshxonadagi idishlarni yuvib, changlarni artib qo‘ydi. Bundan onasi quvondi:

– Orasta va aqlli o‘g‘limdan aylanay, – deb maqtadi.

– Oyijon, endi xonamni o‘zim yig‘ishtiraman. Siz kun bo‘yi ishlab charchab kelasiz. Bugundan boshlab singlim bilan uy ishlarini bajarishda sizga yordam beramiz, – dedi.

Onasi Akmalning gaplaridan xursand bo‘ldi.



1. O'quv qurollarini qanday saqlash kerak?
2. Sizningcha, bu qoidalarga yana qanday qo'shimcha qilish mumkin?



Quyidagi qoidalarni yodda tuting:



1. Kitob varaqlarini yirtmaslik, buklamaslik, ularga chizmaslik lozim. Kitobdagi rasmlarni qirqib olish odobdan emas. Yirtilgan varaqlarni yelimlash, qo'l va qalam izlarini o'chirg'ich bilan o'chirish kerak.

2. Har bir fan uchun alohida daftar tutish lozim. Daftarni maxsus jild bilan o'rash, unga ortiqcha narsalarni yozmaslik kerak.

3. Qalamlar maxsus qalamdonda saqlansa, uchi sinavermaydi.

4. Suyuq yelim va moybo'yoqlarni maxsus g'ilofga yoki sumkaning alohida bo'lmasiga

solgan ma'qul.

Rasmlarga diqqat qiling. Bolalarga ism bering va rasmda tasvirlangan manzara asosida og'zaki hikoya tuzing.



Kiyim-kechaklarni qanday saqlash kerakligi haqida matn tuzing.

## TOZALIK – SOG‘LIQ GAROVI



Tabobat ilmining sultoni ibn Sino uzoq umr ko‘rish tozalikka bog‘liq ekanini ta‘kidlagan.

### YASHA, SOVUN, YASHA, SUV!

**Po‘lat Mo‘min**

Mikrob bo‘lar juda quv,  
Yashirinib yurar u,  
Unga qarshi kurashgan  
Yasha, sovun, yasha, suv!

Ishlaganda ko‘pirgan,  
Dog‘larni ham o‘chirgan,  
Charchamagan xizmatda  
Yasha, sovun, yasha, suv!

Yuzlarimni yuvaman,  
Yalqovlikni quvaman,  
Sog‘liq bergan tanamga  
Yasha, sovun, yasha, suv!



Tozalikka rioya qilish salomatlik uchun zarur. Chunki juda ko‘p kasalliklar tozalikka rioya qilmaslik oqibatida kelib chiqadi.

Ko'zga ko'rinmas mikroblar – salomatligimiz kushandasi. Lekin ularga qarshi kurashish mumkin. Buning uchun suvdan foydalanish va erinmaslik kerak, xolos.

**«Odobnoma» darsida o'qituvchi o'quvchilarga tozalikka rioya etish qoidalarini yozishni topshirdi. Ra'no topshiriqni quyidagicha bajardi:**

1. Ovqatlanishdan avval albatta qo'llarni sovunlab yuvish.
2. Ertalab va kechqurun yotishdan oldin tishlarni tozalash.
3. Tirnoqlarni o'z vaqtida olish.
4. Alohida sochiq va ro'molchadan foydalanish.
5. Kiyimlarni va paypoqlarni o'z vaqtida almashtirish.
6. Mevalarni yuvib iste'mol qilish.
7. Qaynatilmagan suvni ichmaslik.



Siz bu qoidalarga yana nimalarni qo'shimcha qilgan bo'lardingiz?

**Quyidagi buyumlardan qaysilari tozalikka oid emas?**





Otabekning ertalabki kun tartibi to'g'ri tuzilganmi? Uni tartib bilan qayta tuzib chiqing.

Otabek uyqudan turdi. Nonushta qildi. Tufflisini kiydi. Kerakli kitob-daftarlarini sumkasiga joyladi. O'rnini tartibga keltirdi. Yuz-qo'lini, tishlarini yuvdi. Kiyimlarini kiydi. Ota-onasiga salom berdi. Maktabga jo'nadi.



«Kun tartibi» jadvali bilan tanishing. Siz ham kunni shu tartib asosida o'tkazasizmi? Quyidagi jadvalni vaqtini qo'yib to'ldiring:

Kun tartibi	Vaqt	Kun tartibi	Vaqt
Uyqudan uyg'onish		To'garak va sport mashg'ulotlariga borish	
Badantarbiya va yuvinish		Uy ishlariga yordamlashish	
Nonushta		Kechki ovqat	
Maktabga borish		Dars tayyorlash	
Maktabdan qaytish		Oilaviy suhbat	
Tushlik		Televizor tomosha qilish	
Dam olish		Uxlash	



O'zingiz doimiy foydalanadigan tozalik vositalarining rasmini chizing. Bu vositalarning qanday ishlatilishi va foydasi haqida so'zlab bering.

## OZODALIK VA SARANJOMLIK



**Ozodalik** – yurish-turishda, kiyinish hamda ovqatlanishda tozalikka va pokizalikka rioya qilish.

**Saranjomlik** – barcha ishni bekam-u ko‘st bajarish; narsalarni asrab-avaylab, tartibli saqlash.

### Quyidagi vaziyatdan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Nodira bilan Salima har kuni maktabga birga borishadi. Nodira dugonasini chaqirgani kirdi. Salimaning sochlari taralmagan, o‘quv qurollari har joyda sochilib yotardi.

– Salima, nega tayyor emassan? Yoki mazang yo‘qmi? – deb so‘radi Nodira.

– Oyim shifoxonada edilar. Nonushta tayyor emas, kiyimlarimni topolmayapman, – dedi Salima.

– O‘rtoqjon, bu ishlarni o‘zing qilsang bo‘ladi-ku. Bu ishlarni men o‘zim bajaraman. Kel, buguncha senga yordam beraman, – dedi Nodira. Salima dugonasining oldida xijolat bo‘ldi.

– Oyijonim ham shunday derdilar. Lekin men quloq solmasdim. Endi ularning aytganlarini qilaman, – dedi.



1. Salima o‘zidagi qaysi odatlarni yo‘qotishi kerak?
2. Siz o‘zingizni ozoda va saranjom deb hisoblaysizmi?

## Karimga qanday yordam berasiz?


Karim maktabga borguncha ko'chadagi kuchuk va mushuklarni quvadi, tosh otadi. U otgan toshlar ba'zan odamlarga tegadi. Karim uzr so'rash o'rniga qochib qoladi. Tunov kuni u Toshmat boboning oynasini sindirdi.

Karim darsda ham tinch o'tirolmaydi. Partaga, sinf devorlariga turli so'zlarni yozadi, rasm chizadi. Sinfdoshlarini gapga tutib, diqqatini bo'ladi.

Karim o'z narsalarini ham ayamaydi. Bir kuni daftar yoki ruchkasini, boshqa kuni bosh kiyimini yo'qotadi. To'g'ri yo'l qolib, doim loy va toshloq joylardan yuradi. Shuning uchun ota-onasi unga tez-tez kiyim sotib olib berishga majbur. Karimga sizning yordamingiz kerak. Unga qanday yordam berasiz?



Quyidagi rasmlarda berilgan narsalarni qayerda va qanday saqlash kerak?



## TEJAMKORLIK. BOBOLARIMIZ TEJAMKORLIK HAQIDA



**Ne'mat** – insonni yashashi uchun zarur bo'lgan narsalar. Masalan, suv, oziq-ovqat, kiyim-kechak, narsa-buyum, vaqt va hokazolar.

**Tejamkorlik** – ne'matlarni qadrlash, me'yorida ishlatish.

**Isrofgarchilik** – ne'matlarni qadrlamaslik va me'yoridan ortiqcha ishlatish.

Tejamkorlik – yaxshi fazilat. Tejamkor insonning oilasida baraka, ishida unum bo'ladi. Kimki o'zidagi bor narsani tejab-tergab ishlatsa, u uzoqqa yetadi.

Isrofgarchilik esa eng yomon odatlardan. Shu bois ota-bobolarimiz tejamkor bo'lishga undashgan.

Hadislarda ham: «Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi», – deyiladi. Yoshligidan tejamli bo'lishga o'rgangan odam hech narsaga zor bo'lmaydi.

### BUVINING O'GITI

Anvar ertalab shosha-pisha nonushta qildi. U kattagina non bo'lagini olib, bir-ikki tishladi, shirin choyni ham oxirigacha ichmadi. Buni kuzatib turgan buvisi dedi:



– Bolam, nonni oxirigacha yeb, choyni ichib qo‘ymaysanmi?

– Qornim to‘ydi, yegim kelmayapti.

– Bu ishing yaxshi emas, bolajonim. Esingda bo‘lsin, isrofgarchilik – eng yomon odat. Har narsaning uvoli bo‘ladi. Nimani xor qilsang, shunga zor bo‘lasan. Shunday paytlar bo‘lganki, odamlar bir burda non uchun jon berishgan. Sening bu ishing to‘qlikka sho‘xlik qilishdir. Bundan keyin zinhor bunday qilmagin. Hamma narsani o‘zingga yarashasini ol.

– Xo‘p bo‘ladi, buvijon, – dedi Anvar va bu gaplarni yoddan chiqarmaslikka va‘da berdi.



Odobli bola o‘quv qurollarini, kiyim-kechaklarini tartibli saqlaydi, isrof qilmaydi. Chunki bu narsalar ota-onamizning mehnati evaziga kelgan. Biz o‘z narsalarimizni asrab-avaylash orqali oilamizga yordam bergan bo‘lamiz.

Hayotda tejankor bo‘lish orqali nafaqat oilamizga, balki davlatimizga ham foyda keltiramiz. Behuda oqib turgan suvning jo‘mragini burab qo‘yish, yoniq qolgan chiroq yoki gazni o‘chirish orqali qanchadan-qancha mablag‘ni tejash mumkin.



Odobli bola maktabidagi va jamoat joyidagi narsalarni ham asraydi. Chunki biz foydalanayotgan narsalar boshqalarga ham, uka va singillarimizga ham xizmat qilishi kerak.



1. O'quv qurollarini asrab-avaylab ishlatish deganda nimani tushunasiz?
2. Isrofgarchilik qanday oqibatlariga olib keladi?
3. Siz o'zingizni tejamkor deb bilasizmi? Misollar keltiring.

### **Tejamkorlik haqida maqollar**

Yotib yeyishga tog' ham chidamaydi.

\* \* \*

Saqlasang – ming kunlik,  
Saqlamasang – bir kunlik.

\* \* \*

Toma-toma ko'l bo'lur,  
Tommay qolsa, cho'l bo'lur.

\* \* \*

Hisobini bilmagan  
Hamyonidan ayrilar.



Vaqtdan qanday foydalanishingiz haqida mulohaza yuriting va matn tuzing.

### **NONNING USHOG'I HAM NON**



1. Non haqida qanday she'r, qo'shiq va maqollarni bilasiz?
2. Dasturxonni nonsiz tasavvur etish mumkinmi?
3. Nonga qanday munosabatda bo'lish kerak? Bu haqda keksalardan qanday o'gitlar eshitgansiz?

Non – aziz va shifobaxsh ne’mat. Hayotning farovonligi, dasturxon to’kinligi non bilan belgilanadi. Dunyoda hech narsa nonning o’rnini bosolmaydi. Shu bois ota-bobolarimiz nonni juda qadrlashgan. Nonning ushog’ini ham uvol qilmaslikka chaqirishgan. Nonni isrof qilishni esa katta gunoh sanashgan.

## NON BILAN KITOB

– Hayotda eng zo’r ham, eng aziz ham sensan. Meni ham sen dunyoga keltirib, qayrab voyaga yetkazding. Shu boisdan bir umr senga ta’zim qilishni burchim deb bilaman, – debdi Aql Kitobga.

– O, do’stginam, meni juda maqtab yubording. Bilmasang, bilib, qulog’ingga quyib ol. Dunyoda mendan ham azizroq narsa bor. Bu – Non! Men Non oldida qarzdorman, – deb javob qilibdi Kitob.

– Non? – taajjublanibdi Aql.

– Ha, Non mendan ulug’. Zero, qorni och odamning qulog’iga so’z kirmas. Sen rahmatni mendan avval Nonga ayt.



1. Kitob Nonning aziz ekanini qaysi so’zlari orqali tushuntirdi?
2. «Nonsiz yashab bo’lmas, gapni oshab bo’lmas» deganda nimani tushunasiz?

Nonni tayyorlash va dasturxonga tortish oson ish emas. Bobodehqon kuzda yer haydab, urug’

qadaydi. Unib chiqqan maysalarga bolasidek mehr berib parvarishlaydi. Bug'doyni o'rish, omborga eltish va tegirmonda yanchishgacha bo'lgan jarayonda ham qanchadan-qancha kishilar ter to'kadi.

Onajonlarimiz undan xamir qorib, xushbo'y va to'yimli nonlar pishiradilar. Nonni qadrlamaslik shuncha odamning mehnatini qadrlamaslikdir.



- Nonni maxsus toza idishlarda saqlang.
- Keragidan ortiq non ushatmang.
- Nonni har yerda qoldirmang.
- Nonni chiqindiga tashlamang.
- Ortgan nonlarni quritilgan yoki talqon holda iste'mol qiling.



O'zbek xalqi nonlari bilan ham dunyoga mashhur. Ayniqsa, Samarqand nonlarining ta'rifi yetti iqlimga ketgan. Bu nonni faqat Samarqand zaminida tayyorlash mumkin. O'zbek xalqi jizzali, piyozli, go'shtli, sedanali, kunjutli, shirmoy, patir, gijda va obinonlari bilan mashhur.



1. Buingiz yoki onangiz bilan nonni qanday tayyorlash, saqlash haqida suhbatlashing.
2. Non haqidagi rivoyat va ertaklardan o'qib, mazmunini so'zlab bering.

## SUV – HAYOT MANBAYI



1. Suvsiz hayotni tasavvur qilish mumkinmi?
2. Kun mobaynida suvdan nima uchun va qay maqsadda foydalanasiz?

Suv – hayot manbayi. Suv bo‘lmagan joyda hayot ham bo‘lmaydi. Jonzotlar ham, o‘simliklar ham suv bilan tirik.

Suv bitmas-tuganmas manba emas. Shu bois uni qadrlash kerak. Qadimda bobolarimiz suvga tupurish, turli chiqindilarni tashlashni gunoh deb bilishgan. Suvni ifloslantirgan odamni jazolashgan.

Dunyoda ichimlik suvi taqchil bo‘lgan mamlakatlarda ko‘p. Afrika va arab davlatlarida odamlar suvni oltin bahosida sotib oladilar. Suvni qadrlash, tejash har birimizning burchimizdir.

## NON VA SUV QADRI

Qadimda bir boy va bir kambag‘al kishi uzoq safarga chiqishibdi. Manzilga yo‘l cho‘l-u biyobon orqali o‘tar ekan. Boy qop to‘la oltin-u javohirlarni ko‘tarib olibdi. Kambag‘al esa xalta to‘la non va bir mesh suv olibdi. Ular yo‘l yurishibdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurishibdi. Boyning ochlik va tashnalikdan sillasi quribdi.

– Ey do‘stim, boylikka ishonib, katta xato qilgan ekanman. Menga ham non-suvingdan ber, –

debdi. Hamrohi unga non-suv beribdi. Shu tufayli ular manzilga sog‘-omon yetib olishibdi.

Xulosa shuki, non-suv har qanday boylikdan ham qimmatliroq va qadrliroqdir.




1. Ushbu rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan narsalarni sanab bering.

### **Suvni tejash uchun quyidagilarga rioya qiling:**

1. Jo‘mrakdan oqayotgan suvni bekitib qo‘ying.
2. Ariq va hovuzlarga turli narsalar hamda chiqindilarni tashlamang.
3. Behuda oqib yotgan suvdan kattalarni xabardor eting.
4. Suvni ishlatishda me‘yorni saqlang.



Suv qay maqsadda va nima uchun ishlatilishi haqida mulohaza yuriting. Javoblaringizni daftarga quyidagi ko‘rinishda yozing:



## SUV

### Qambar Ota

Suvdir olamning joni,  
Obod umr bo'stoni.  
Suv bor joyda yashnar don,  
Tandirlarda pishar non.

Qonib ich, yayrab yuvin,  
Bahramand bo'lib sevin,  
Diling gul yashnar, maza,  
Qanday soz – taning toza.

Kim qatra durin tejar,  
Yurtin, taqdirin bezar.  
Zilol suvi bor Vatan,  
Yutuqlarga yor Vatan.



Qambar Otaning «Suv» she'rini yod oling. Oilangizda suvga munosabat va undan qanday foydalanilishi haqida gapirib bering.



## TAKRORLASH

### OTA VASIYATI (O‘zbek xalq ertagi)

Qadim zamonda bir cholning uchta o‘g‘li bo‘lgan ekan. Chol o‘limi oldidan o‘g‘illariga shunday vasiyat qilibdi:

– Bolalarim, uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng.

Bu gapni ikkita katta o‘g‘il bir xil, kichik o‘g‘il esa boshqacha tushunibdi. Katta o‘g‘illar hovliga so‘ri qurib, suv sepib, yumshoq par to‘shaklarni solishibdi-da: «Uyquni shirin qilish mana bunday bo‘libdi», – deb yotaverishibdi. Uyg‘ongach, turli-tuman mazali taomlarni yeb: «Ovqatni shirin qilib yeyish ana shunday bo‘ladi», – deb yurishaveribdi. Nuqul ovqat yeb, ag‘anab yotaverganlaridan bora-bora yegan taomlari hazm bo‘lmay, na ovqatlarida, na uyqularida halovat qolibdi. Oxiri yeyishga taomlari ham qolmay, nochor ahvolda qolishibdi.

Kenja o‘g‘il esa qunt bilan temirchilikni o‘rganibdi. Ertadan-kechgacha mehnat qilgani uchun uning yegan noni, ichgan choyi shirin, uyqusi esa undan ham shirin bo‘lar ekan. Kenja o‘g‘il mehnatsevarligi tufayli otasining vasiyatini bajaribdi, boyligi ham kun sayin ziyoda bo‘libdi.





1. Ota vasiyatini qaysi o'g'il to'g'ri tushunibdi?
2. Nima uchun kenja o'g'ilning ovqati va uyqusi shirin bo'ldi?



Maqollarni mazmunan joylashtiring va daftaringizga yozing.

Mehnat qilgan –	bir savat non
Hunar –	o'tin tashishdan erinma
Bir boshqoq don –	olam seniki
Non yemoqchi bo'lsang,	elda aziz
Olim bo'lsang,	oltindan qimmat

## BIZ YASHAYOTGAN OLAM



1. Ona-sayyoramiz – Yer haqida nimalarni bilasiz?
2. Yerdagi o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida qanday filmlar ko‘rgansiz yoki kitoblar o‘qigansiz?

Bizning ona sayyoramiz Yerdir. Yer yashash uchun juda qulay sayyora. U suvliklar, tog‘ va muzliklar, cho‘l va o‘rmonlardan iborat. Yer insonlarni, hayvon va o‘simliklarni o‘z bag‘riga olgan.

Yerdagi hayot muvozanatini saqlashda har bir jonzot va o‘simlikning o‘z vazifasi hamda o‘rni bor. Tabiat qat’iy tartib asosida yashaydi. Undagi biror jonzot yoki o‘simlikning yo‘qolib ketishi tartibning buzilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa turli tabiiy ofatlarni keltirib chiqaradi.

Jamiki tirik mavjudotlarning yashashi uchun hayot o‘z maromida borishi kerak. Yer yuzida hayotni asrab qolish uchun esa har birimiz mas’ulmiz.




Inson o‘z xatti-harakatlari uchun javobgar. U har bir ishining oqibatini o‘ylab qilishi kerak.





Topishmoqlarga javob topib, boshqotirmani yeching



**Bo'yiga:**

1. O'zi oyoq ostida,  
Hammani to'ydiradi.
2. Yerga tushsa, loy qilar,  
Butun olamni boy qilar.

**Eniga:**

1. Oppoq sochli boshlari,  
Daryo bo'lar yoshlari.
3. O'yib oldim, izi yo'q.
4. Zar gilam, zar-zar gilam,  
Ko'tarar desam, og'ir gilam.
5. Osmon chirog'i, Yondi-da o'chdi.
6. Nur sochar issiq,  
Boqolmayman ko'zim qisq.



Olamni qanday tasavvur qilishingizni chizgan rasingiz orqali ifodalab bering.

## MEN TABIATNI QANDAY ASRASHIM MUMKIN?



1. O'z qo'lingiz bilan ko'chat ekanmisiz? Uni qanday parvarishlash kerak?
2. Qishlog'ingiz (shahringiz)ning o'ziga xos tabiati haqida gapirib bering.

Insonlar, o'simliklar va jonivorlar tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi. Har bir tirik jonning nafas olishi va yashashi uchun suv, havo va oziq-ovqat kerak. Bularning bari tabiatda mavjud. Tabiat bizning umumiy uyimiz. Uni asrash har birimizning burchimizdir.



Behzod va Dono tabiatni asrashda quyidagi qoidalarga amal qiladi. Siz bu qoidalarga yana qanday qo'shimchalar kiritgan bo'lardingiz?

1. Daraxt va gullar ekish, parvarishlash;
2. Suvni tejash va ifloslantirmaslik;
3. Chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamaslik;
4. Xazonlarni yoqmaslik;
5. Jonivorga ozor yetkazmaslik...

**1-vaziyat.** Tasavvur qiling: maktabdan uyga qaytyapsiz. Ko'chada bir guruh bolalar to'plangan xazonga o't qo'yishayotganini ko'rib qoldingiz? Bunday vaziyatda qanday yo'l tutasiz?

**2-vaziyat.** Do'stlaringiz bilan o'ynab yurib-siz. O'rtoqlaringizdan biri daraxtdagi qush uyasini ko'rib qoldi. «Balki uyada polaponlar bordir. Kelinglar, ularni olamiz», – dedi. Siz qanday yo'l tutasiz?

## CHUMCHUQ BOLA

Boboxon chumchuq bolasini rosa qiynab ezg'iladi: suvga solib suzdirdi, dum-dumaloq mitti ko'zlariga cho'p tegizib ko'rdi...

Keyin oyog'iga ip bog'lab, ko'chaga olib chiqdi. Ko'chada o'rtog'i Tal'atga duch keldi. Tal'at Boboxonni ko'rdi-yu, qovog'i solindi. Boboxon juda o'jar bola edi, shundan Tal'at unga yalinib o'tirmay, shosha-pisha yonini kovlashtirdi: kissasida yarimta o'chirg'ich bilan kecha ochgan qizil qalami bor ekan...

– Boboxon, chumchuqni qayerdan olding?

– Bug'doyzordan, chigirtka tutayotganimda do'ppim bilan urib yiqitdim.

– Almashmaysanmi?

Boboxon yalt etib Tal'atga qaradi, so'ng bir narsani o'yladi, shekilli:

– Almashaman, nimang bor? – dedi hovliqib.

– Mana, bo'yoq qalam, shunga berasanmi?

– Fi-i! Tirik chumchuqni bitta qalamgami?

Boshqa narsang yo'qmi?

– Agar xo'p desang, mana bu o'chirg'ichimni ham beraman.



Boboxon bilagiga o‘rab olgan pishiqlik, ingichka ipni bo‘shatib, Tal‘atdan o‘chirg‘ich bilan qalamni oldi-da, chumchuq bolani berdi. Keyin qiziqsinib:

- Buni alishvolib nima qilasan? – dedi.
- Hozir bilasan nima qilishimni...

Tal‘at chumchuq bolaning oyog‘idan avaylab ipni yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchani bir-ikki siladi-yu, keyin birdan osmonga qo‘yib yubordi...

**O‘ktam Usmonov**



1. Boboxon qanday bola ekan?
2. Siz ham shunday vaziyatga duch kelsangiz, Tal‘atning yo‘lini tutgan bo‘larmidingiz?

## HAYVONLARGA MUNOSABAT




1. Xonadoningizda qanday uy hayvonlari bor?
2. Siz ularni parvarishlashda ota-onangizga yordam berasizmi?
3. Hayvonlarga qanday munosabatda bo'lish kerak deb o'ylaysiz?

Hayvonlar qadimdan insonlarning eng yaqin do'sti, ko'makchisi bo'lib kelgan. Ular gapira olmasalar ham mehr-shafqatni, yaxshilikni his qiladilar. Kishining hayvonlarga munosabatidan uning qanday odam ekanini bilib olish mumkin.



Itlar xonadonimizning qo'riqchilaridir. Itlar urush paytida yaradorlarni jang maydonlaridan olib chiqqan. Shuningdek, ular ko'plab jinoyatlarni ochishga yordam beradilar.



Mushuklar uyimizni turli kemiruvchilardan asraydi. Ular – juda sezgir jonivor. Mushuklar turli xavf-xatarlarni oldindan sezib, insonni ogohlantiradi.



Qadimdan ajdodlarimiz otlarni eng sadoqatli jonivor sifatida qadrlab kelishgan. Mard o'g'lonlar ot minib, yurtni bosqinchilardan himoya qilganlar.



1. Hayvonlarning vafodorligi va do'stligi haqida qanday filmlarni ko'rgansiz yoki kitoblarni o'qigansiz?





2. Kapalak, ninachi, xonqizi kabi hasharotlarni tutish tabiat uchun zararli deb o'ylaysizmi?
3. Sizningcha, hamma hayvonlarni yoki qushlarni uy sharoitida boqish mumkinmi? Bulbul yoki tipratikanni parvarishlash uchun qafasga solish to'g'rimi?

Tabiatni, o'simlik va jonivorlarni asrash, ko'paytirish uchun qo'riqxonalar tashkil etiladi. O'zbekistonda ko'plab qo'riqxonalar, milliy va tabiiy bog'lar mavjud. Ularda yo'qolib borayotgan noyob tur o'simliklar va hayvonlar muhofaza qilinadi. Qo'riqxonalar hududida ov qilish, baliq tutish, daraxt kesish, o't o'rish, mol boqish taqiqlanadi.



O'zbekiston «Qizil kitob»iga esa Osiyo qoploni, tog' qo'yi, yo'l-yo'l sirtlon, jayron, tuvaloq, oqqush, chipor kaltakesak singari noyob jonivorlar kiritilgan. «Qizil kitob» davlat hujjati hisoblanadi. Unda qayd etilgan o'simliklarga zarar yetkazgan, jonivorlarni ov qilgan kishilar qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.



Ota-onangiz bilan o'zingiz yashayotgan hududdagi noyob o'simlik va hayvonlar haqida suhbatlashing. Suhbat asosida ma'lumot to'plang.

## TABIAT QO'YNIGA SAYOHAT



1. Oilangiz yoki do'stlaringiz bilan sayohatga chiqqanmisiz?
2. Sayohat uchun olgan yegulik va ichimliklarning idishlarini qayerga tashlash kerak?
3. Sayohat chog'ida gul va o'simliklarni uzish, daraxtlarning shoxini sindirish to'g'rimi?

Yurtimizning tabiati juda go'zal. Ayrim mamlakatlarda yil davomida yoz, ayrim mamlakatlarda esa faqat qish bo'ladi. Hindistonda oylar davomida tinimsiz yomg'ir yog'sa, Tundrada 9 oy qahraton sovuq hukmronlik qiladi. Afrikada yil bo'yi jazirama yoz bo'ladi. Bizning mamlakatimizda esa yil-

ning to'rt fasli birdek o'tadi. Har bir faslning o'z gashti, o'z tarovati bor.

**Quyidagi ta'riflar qaysi faslga tegishligini toping.**

Dov-daraxtlar mizg'igan,  
Izg'irin yel izg'igan.  
Ko'chalar yaraqlaydi,  
Yulduzlar charaqlaydi.



**Nurullo Oston**



Daraxt bargi tillarang,  
Mevalardan tomar bol.  
Dalalarga bir qarang,  
Oq gullardan chamanzor.

**Habib Rahmat**

Yumshoq yerdan yumilib,  
Tong nuriga cho'milib,  
Kulib chiqar boychechak,  
Olqishlarga ko'milib.



**Shukur Sa'dulla**



Endi quyosh barchani  
Bir mehrda suyadi.  
Yalangoyoq yursang gar,  
Oyoqlaring kuyadi.

**Ravshan Fayz**

## MAROQLI SAYOHAT

Ko'klam kunlarining birida 3-sinf o'quvchilari ustozlari bilan tabiat qo'yniga sayohatga chiqishdi. Sharqiragan soy, baxmaldek o'tloq, rang-barang gullarga qo'ngan kapalaklarni ko'rgan bolalar bavarariga:

– Voy, atrofning go'zalligini, – deb yuborishdi.

Zilola va Nafisa gulchambar yasamoqchi bo'lib darhol gul terishga tushib ketishdi.

– Qizlar, bu gullar bir zumda so'lib qoladi. Bekorga ularni uvol qilmang, – dedi ustoz. – Qarang, gullar shu turishida qanchalik chiroyli.

Bolalar quvlashib har tomonga chopib ketishdi. Bir payt Akbar o'zi tutib olgan ninachini Behzodga ko'rsatdi:

– Qara, qanday katta ninachi tutib oldim. Ko'zlari xuddi shishaga o'xshaydi-ya.

– Uni qo'yib yubor, ozor berma. Axir odobnoma darsida ustozimiz jonivorlarga ozor berish yaxshi emas, demaganmidi?

Akbar ninachini qo'yib yuborgan edi, u qanotlarini pirpiratgancha uchib ketdi.

Tushlik paytida ustoz:

– Bolalar, ortgan ovqatlarni, yelim idishlar va qog'ozlarni har tomonga tashlamang, o'zimiz bilan olib ketamiz, – dedi.

– E, tashlab ketaversak bo'lmaydimi, ko'tarib yuramizmi? – dedi Sardor.

– Hordiq chiqarish uchun kelgan har bir odam bittadan keraksiz narsa tashlab ketaversa, bun-

dan tabiatga qanchalik zarar yetishini bilasizlarmi? Sayyoramizdagi 7 milliarddan ortiq odam bittadan gul uzsa, gulzorlar yo'q bo'lib ketishi, bittadan chiqindi tashlasa, dunyo chiqindixonaga aylanishi hech gapmas. Aksincha, bittadan gul yoki ko'chat eksa-chi, dunyo gul-u gulzorga, bog'-u rog'ga aylangan bo'lar edi.

Bu gapdan so'ng Sardor yerga tashlamoqchi bo'lgan konfet qog'ozini asta cho'ntagiga solib qo'ydi.



Tasavvur qiling: sizda tabiat qo'yniga sayohat qilish imkoni bor. Buning uchun qaysi faslni tanlaysiz? Sayohatga kimlar bilan borasiz? Sayohatingiz qanday o'tishini xohlaysiz? Dam olish chog'ida atrof-muhitga qanday munosabatda bo'lasiz? Shu haqda kichik matn tuzing.

## TAKRORLASH

### TABIB KO'KLAM

**Rauf Tolib**

- Ayting, ona, daraxtga Bolta urar kim? Qandoq?
- Umi, bir nihol ekib Ko'kartirmagan mutloq.

- Kimdir go‘zal gulzorni  
Qilibdi rosa payhon?
- Chunki u gul husniga  
Boqmagan-da lol, hayron.
  
- Sho‘x, sayroqi qushlarga  
Kim u ko‘targan miltiq?
- U qush tilin anglamas,  
Unga begona qo‘shiq.
  
- Ona yer bag‘ri kuygan,  
Tabiatda qora dog‘.  
Ayting yashil olamga  
O‘t qo‘yar qaysi ahmoq?
  
- Tabiatni, tog‘larni,  
Eh, vayron etar odam...  
Har yili yaralarin  
Davolar tabib ko‘klam.



Harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib, katakchalarda yashiringan hayvon va qush nomlarini toping.

1.	R	U	B	G	T	U
2.	Y	A	R	J	N	O
3.	K	A	L	Y	L	A
4.	N	O	Q	O	L	P

## RIVOYATLAR TARIXIMIZDAN SO‘ZLAYDI. NAVRO‘Z HAQIDA RIVOYAT

Rivoyatlar bizga xalqimizning tarixidan hikoya qiladi. Xalqimiz tomonidan mashhur shaxs, joy, imorat, tarixiy voqea yoki hodisalar haqida ma’lumot beruvchi rivoyatlar yaratilgan. Rivoyatlar-da ajdodlarimiz ko’rsatgan qahramonliklar, urf-odat va bayramlarning kelib chiqishi qiziqarli tarzda bayon etiladi.

Juda qadim zamonda O‘g‘uz o‘g‘li g‘orda yashar ekan. U qishdan qattiq qo‘rqar ekan.



Shuning uchun oziq-ovqat g'amlab, qishga uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rar ekan. Bir yili qish qattiq kelib, O'g'uz o'g'lining jamg'argan yeguligi tugab qolibdi. U oziq-ovqat topishga majbur bo'lib g'ordan chiqibdi. Qarasa, quyosh chiqib, havo iligan ekan. Yo'lda borayotsa, oldidan bir ko'k yolli bo'ri chiqib qolibdi:

– O'g'uz o'g'li, bu ilik uzildi kunda qayoqqa ketayotibsan? Yo'l bo'lsin? – deb so'rabdi bo'ri.

O'g'uz o'g'li yegulik qidirib ketayotganini aytibdi. Shunda bo'ri debdi:

– Mana shu yo'l bo'ylab borsang, bir surov qo'y, bir bog' bug'doy, bir tegirmon va bir charx bor. Shularning bari seniki. Qo'ylarni boqib ko'paytirasan, junini charxda ip qilib yigirib, o'zingga kiyimlik mato to'qiysan, bug'doy donlarini yerga sochsang, nonli bo'lasan.

O'g'uz o'g'li bo'ri aytgan joyga borib qarasa, chindan ham o'sha narsalarning hammasi turgan emish. O'g'uz o'g'li qo'y boqishni, bug'doy ekib, dehqonchilik qilishni, ip yigirib, o'ziga kiyim tikishni o'rganibdi. Hayoti farovon bo'lib ketibdi. Shu bois u har yili bo'ri bilan uchrashgan kuni bayram qiladigan bo'libdi. Bu qahraton qishdan qutulib, bahorga yetishgan kuni – Navro'z ekan.



1. Siz istiqomat qilayotgan hududda Navro'z bayrami qanday kutib olinadi?
2. Sizga bayramdagi qaysi urf-odat yoki marosimlar yoqadi?



## NAVRO‘Z

Dilshod Rajab

Navro‘z keldi, xush keldi,  
Qalbimizga nur keldi.  
Borliq to‘ldi iforga,  
Osmon to‘la qush keldi.

Gulday uchar kapalak,  
Qizlar sochi jamalak.  
Qiqir-qiqir kuladi  
Doshqozonda sumalak.

Sumalakni yalanglar,  
Kamalakka qaranglar –  
Yer-u ko‘kni bog‘lagan  
Nurli ko‘prik bu ranglar.




Navro‘z haqidagi she‘r va qo‘shiqlardan yod oling.

### SUMALAK TARIXI



1. Sumalak yilning qaysi faslida va qanday tayyorlanishini bilasizmi?
2. Sumalak tayyorlash jarayonida kimlar ishtirok etadi?

Qadim zamonda serfarzand bir oila bo‘lgan ekan. Bu oila shunchalik kambag‘al ekanki,



uyda yegani hech vaqosi yo‘q ekan. Ota yegulik topib kelish uchun bozorga ketibdi. Ammo kun peshindan og‘sa ham, undan darak bo‘lmabdi.

Och qolgan bolalar ovqat so‘rab yig‘lay boshlashibdi. Shunda tadbirkor ona bir hiyla o‘ylab topibdi. U bolalarini chalg‘itish uchun kattakon qozonni suvga to‘ldiribdi. Keyin unga bir hovuch tosh va nish urgan bug‘doy ko‘katini tashlab, kavlay boshlabdi. Bolalar o‘choq atrofida taom tayyor bo‘lishini kuta-kuta uxlab qolishibdi.

Qozonni kavlayverib toliqqan ona ham yarim tunda uxlab qolibdi. Ertalab uyqudan turgan bolalar yana ovqat so‘rashibdi. Ona qozonning qopqog‘ini ochib, hayron bo‘libdi. Chunki qozonda juda xushbo‘y va xushta‘m taom paydo bo‘lgan ekan-da.

### **SUMALAK** (xalq qo‘shig‘i)

Bahorning sen elchisi,  
Yaxshilikning belgisi,  
Navro‘zning sen singlisi,  
Sumalakjon, sumalak.  
Sumalakjon, sumalak...  
Doshqozonda sumalak,  
Kavlamagan armonda,  
Bir-birining ko‘nglini,  
Ovlamagan armonda.  
Sumalakjon, sumalak,  
Sumalakjon, sumalak.

## SHIFOBAXSH TAOM

Feruzaning buvisi har yili ko'klamda sumalak tayyorlaydi. Bu yil Feruza sumalak qanday tayyorlanishini bilib olish uchun buvisiga yordamlashmoqchi bo'ldi.

– Buvijon, nima uchun bu taom sumalak deb nomlangan, – deb so'radi Feruza.

– Rivoyatlarda aytilishicha, sumalak pishgunga qadar uning tepasida o'ttizta malak, ya'ni farishta duo o'qib turarmish. Shuning uchun uni momolar «si malak» – «o'ttiz malak» deb atashgan. Sumalak uchun dastlab sara bug'doy tanlash kerak, – deb uqtirdi buvisi. – Bug'doyni yaxshilab tozalab, yuvib, so'ng undiramiz. Ungan maysalar-ni maydalab, suvini siqib olamiz. Keyin qozonga



yog‘, bug‘doy suvi va un solib, pishirishni boshlaymiz.

– Men sumalak yalaganimda ichidan tosh chiqqan edi. Tosh nega solinadi?

– Sumalak tagiga olmasligi uchun qozonga mayda va silliq toshchalar solinadi. Sumalak – shifobaxsh taom. Bahor paytida tanamizga juda ko‘p darmondorilar kerak. Sumalakda esa darmondorilar juda ko‘p. Uni to‘yib yegan odam yil bo‘yi tetik va sog‘lom bo‘ladi.

Sumalak tayyorlanadigan kun Feruzalarning hovlisi qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘lar bilan to‘ldi. Taom tayyor bo‘lguncha keksa onaxonlar ibratli hikoyat va rivoyatlardan aytib berishdi, yoshlar qo‘shiq va laparlar kuylashdi.

Ertalab mahalladagi barcha xonadonlar dasturxoniga mazali sumalak tortildi.



1. Nima uchun sumalak erta bahorda tayyorlanar ekan?
2. Sumalak pishirish jarayonida bolalar o‘zlarini qanday tutishlari kerak?
3. Hikoyadagi oxirgi gapni qayta o‘qing. Bu gap orqali nima deyilmoqchi?



Rasm daftaringizda sumalak tayyorlash jarayonini tasvirlang.

## XALQ O‘YINLARI. O‘YIN ODOBI



1. Siz o‘rtoqlaringiz bilan qanday o‘yinlarni o‘ynaysiz?
2. O‘yin chog‘ida g‘irromlik qilgan, arazlagan bolalarga munosabatingiz qanday?

O‘yin – bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biri. O‘yin shunchaki vaqt o‘tkazish uchun o‘ynalmaydi. O‘yin chog‘ida jismonan chiniqamiz, zehnimiz charxlanadi. Masalan, «Kurash», «Besh tosh», «Tortishmachoq», «Arqonda sakrash» kabi o‘yinlar bolalarni jismonan chiniqtiradi. «Tez aytish», «O‘ylab top» singari o‘yinlar esa zehnni charxlaydi. «Mehmon-mehmon» o‘yini esa bolalarni milliy urf-odat va odob-axloqqa o‘rgatadi.

O‘yin o‘ynashning o‘ziga yarasha qonun-qoidalari bor. O‘yin chog‘ida g‘irromlik qilish kerak emas. Ayrim bolalar salgina narsaga arazlab qolishadi. G‘irromchi va arazchi bolani o‘rtoqlari o‘yinga qo‘shgisi kelmaydi.

**1-vaziyat.** Siz ko‘chada bolalar o‘ynayotganini ko‘rdingiz. Ular sizni o‘yinga qo‘shishni istashmadi. Lekin sizning juda ham o‘ynagingiz kelyapti. Bolalar sizni o‘yinga qo‘shishlari uchun nima qilasiz?

**2-vaziyat.** O‘yin chog‘ida o‘rtog‘ingizni qattiq xafa qilib qo‘ydingiz. Undan qanday kechirim so‘raysiz?



Harakatli o'yinlar bolalarni jismonan chiniqtirib, ularda chaqqonlikni oshirsa, tez fikrlash o'yinida so'z muhim o'rin tutadi. «Chorlama», «Guldurgup», «Aytishma», «Sanama», «Tez aytish», «Chandish» va «Topishmoqlar» aqlni charxlovchi o'yinlardir. So'zlash jarayonida fikrni jamlash, so'zning ohangini, ma'nosini anglash va his qilish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, savolga aniq javob qaytarish bunday o'yinlarning muhim belgisi hisoblanadi.

### **Tez aytishlar**

Qurilishga terak kerak,  
Demak, ekmoq kerak terak.

\* \* \*

Qopqoq qop yonida,  
Qop qopqon yonida.

## Bo'ri va echki (Aytishma o'yin)

Bo'ri: – Bo'ri, echki inoqdir,  
Birga-birga quvnoqdir.  
Keling-keling, hammamiz  
Birga sayr etamiz.


Echki: – Xo'p aldatib bo'psiz-da,  
Qo'ng'izvoyni yebsiz-da.  
Burni uzun bo'rivoy,  
Bizni ushlab bo'psiz-da.



Bahor chog'ida «Oq terakmi, ko'k terak», «Chillak», «Boylandi» singari o'yinlarni o'ynash mumkin.

### «OQ TERAQMI, KO'K TERAQ»

Namozgarga yaqin bolalar chug'urlashib qolishdi. Chiqdim. Bolalar mening uchun yangi «Oq terakmi, ko'k terak» o'ynashayotgan ekan. Bu o'yinda bolalar orada yigirma-o'ttiz qadam masofa qoldirib ikki safga tizilishar, qo'l ushlab turishar, safning boshlig'i qarshi safga qarab: «Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?» derkan. Qarshi tomonning boshlig'i: «Falonchi kerak», – deganda nomi aytilgan bola safdan chiqar ekan-u yugurib borib, o'zini jon-jahdi bilan qarshi safga urar ekan; shunda safni uzolsa, g'olib bola





magʻlub safdan bir bolani yetaklab kelar, safni uzolmasa, oʻzi shu safda qolib ketar ekan...

Qanchadan-qancha bolalar qarshi safni buzib bola olib keldi, qanchadan-qanchasi safni buzolmay qolib ketdi. Orziqib kutdim: meni ham «kerak» desa, men ham yugurib borib safni buzsam, bola yetaklab kelsam... Biroq meni hech kim «kerak» demadi. Bu bolalar mening nomimni bilmasligi esimga kelmabdi.


**Abdulla Qahhorning  
«Oʻtmishdan ertaklar» qissasidan**



Kattalar bilan xalq oʻyinlari haqida suhbatlashing. Ular bolalik chogʻlarida qanday oʻyinlarni oʻynashgani bilan qiziqing. Oʻzingizga notanish boʻlgan oʻyinning qanday oʻynalishini, shartlarini bilib oling.

## UMUMLASHTIRUVCHI DARS

Aziz oʻquvchi! Siz yana bir yoshga ulgʻaydingiz. 3-sinf davomida koʻplab bilim va hayotiy tajriba orttirdingiz. Jonajon Vatanimiz – Oʻzbekiston haqida turli maʼlumotlarga ega boʻldingiz. Shu bilan birga milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning boy maʼnaviy merosi bilan tanishdingiz. Inson hayotida zarur boʻladigan eng muhim axloqiy qoidalarni oʻrgandingiz. Atrof-



muhitga va jonzotlarga qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida bilib oldingiz. Bularning barchasi sizga hayotda o'z yo'lingizni topib olishingizga ko'maklashadi.

Aziz o'quvchi! Siz yurtimizning kelajagi, otanangizning umidisiz. Oldinda sizni yangi bilimlar kutmoqda. O'ylaymizki, ularni qunt bilan egallab, barkamol inson bo'lib yetishasiz.

## **G'AZZOLIY VA QAROQCHILAR**

(rivoyat)

Islom dunyosining mashhur olimi Imom G'azzoliy yoshlik chog'ida Nishopur va Gurgon shaharlariga tahsil olish uchun bordi. U olgan ilmi unutilib ketmasligi uchun bilganlarini qog'ozga yozib, saqlab qo'yardi. Yillar o'tib u ona yurtiga qaytmoqchi bo'ldi. Xurjunga qog'ozlarini solib, bir karvon bilan yo'lga tushdi.


Yo'lda karvonga qaroqchilar hujum qildi. Qaroqchilar yo'lovchilarning mol-mulkini tortib ola boshladilar. Navbat G'azzoliyga yetganda u:

– Hamma narsamni oling, roziman. Lekin xurjunimdagi qog'ozlarimga tegmang, – deb iltimos qildi.

Qaroqchilar xurjunda juda qimmatbaho narsa bo'lsa kerak, deb o'yladilar va tortib oldilar. Oltin-u javohir o'rniga bir uyum qog'ozni ko'rib:

– Bular nima? – deb so'radilar.

– Bular – mening bir necha yillik tahsilim



samarasi. Bularni tortib olsangiz, barcha mehnatlarim zoye ketadi, – dedi G‘azzoliy.

Shunda qaroqchilardan biri:

– Xurjunga joy bo‘ladigan va o‘g‘irlash mumkin bo‘lgan narsa ilm bo‘lolmaydi. Sen ilmingni qog‘ozga emas, xotirangga joylaginki, uni sendan hech kim tortib ololmasin, – dedi.

Bu gaplar G‘azzoliyga qattiq ta‘sir etdi va bundan keyin o‘qib-o‘rganganlarini xotirasiga joylashga qaror qildi.



1. G'azzoliyga qaroqchining qaysi gaplari qattiq ta'sir qildi?
2. Insondan nimalarni tortib olish mumkin? Nimalarni hech kim tortib ololmaydi?



### Ta'til uchun topshiriqlar

1. Ibratli hikoya, she'r, ertak va rivoyatlardan mutolaa qiling.
2. Axloq-odobga oid maqollarni yod oling.
3. Ota-onangiz bilan o'zingiz yashayotgan hududdagi tarixiy joylarga ziyoratga chiqing.
4. Yoz davomida do'stlaringiz bilan miriqib hordiq chiqaring, milliy va harakatli o'yinlarni o'ynang, jismonan chiniqing.
5. Kattalarga uy-ro'zg'or, bog' va dala ishlarida yordam bering.

## MUNDARIJA

I bo'lim. Vatan muqaddas.....	3
O'zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat .....	4
Konstitutsiyamizda bolalar huquqi .....	9
Men O'zbekiston Respublikasi fuqarosiman .....	13
Vatanning – onang.....	16
Vatanni sevish nima?.....	19
Vatanimizdagi tarixiy obidalar .....	22
Takrorlash .....	26
II bo'lim. Inson go'zalligi – odob-axloqi bilan .....	28
Keksalarni ardoqlaylik .....	28
Bola huquqlari. «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun haqida .....	30
Muqaddas kitoblarda bolalar odobi .....	32
Donolar odob-axloq, do'stlik haqida .....	35
Saxiylik va baxillik. Sovg'a berish va sovg'a olish odobi.....	38
Takrorlash .....	41
Mehnat inson hayotini bezaydi.....	43
Kasblar olami .....	46
Orastalik – inson ko'rki.....	49
Tozalik – sog'liq garovi .....	51
Ozodalik va saranjomlik.....	54
Tejamkorlik. Bobolarimiz tejamkorlik haqida .....	56
Nonning ushog'i ham non .....	58



Suv – hayot manbayi .....	61
Takrorlash .....	64
Biz yashayotgan olam .....	66
Men tabiatni qanday asrashim mumkin? .....	68
Hayvonlarga munosabat .....	71
Tabiat qo‘yniga sayohat .....	74
Takrorlash .....	77
Rivoyatlar tariximizdan so‘zlaydi. Navro‘z haqida rivoyat .....	79
Sumalak tarixi .....	81
Xalq o‘yinlari. O‘yin odobi .....	85
Umumlashtiruvchi dars .....	89

**Mohira Xoliqova,  
Shahnoza Ergasheva**

# **ODOBNOMA**

**3-sinf**

Uchinchi nashri

Toshkent – «Yangiyoʻl Poligraf Servis» – 2016

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir B. Azimov  
Texnik muharrir M. Rixsiev

Bosishga 27.04.2016 da ruxsat etildi. Bichimi 70x90 1/16.  
Arial garniturasida. Ofset bosma. Bosma t. 6,0. Shartli b. t. 7,02.

Adadi nusxa.

Buyurtma №  
Shartnoma

112001, «Yangiyoʻl Poligraf Servis» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, Yangiyoʻl tumani, Samarqand koʻchasi, 44- uy.

## Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

### Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.